

## JIZZAX VILOYATI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA TABIIY RESURLARIDAN FOYDALANISHNING HUDUDIY IMKONIYATLARI

**Kayumova Muxabbat Maxramovna, Sherboyev Nuriddin Jumanazar  
o`g`li, Nurullayev SHohrux Ne`matulla o`g`li**  
Jizzax davlat pedagogika institute

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada Jizzax viloyati qishloq xo'jaligini rivojlantirishda tabiiy resurslardan foydalanishning hududiy imkoniyatlari yoritib berilgan.

### **Kalit so`zlar:**

Tabiiy resurslar, mineral resurslar, suv resurslari, iqlim resurslari, yer resurslari.

Tabiiy resurslardan foydalanish jihatlariga ko'ra Jizzax viloyati ham mamlakat miqyosida o'ziga xos o'ringa ega. Jizzax viloyati hududining geografik o'rni va tabiiy sharoiti nuqtai nazaridan olib qaralganda tabiiy resurslarning bir necha turi bilan u yoki bu darajada ta'minlangan.

Viloyat hududida yer osti mineral resurslari asosan rudali va noruda foydali qazilma konlari bo'lib, oltin, kumush, volfram, qo'rg'oshin, rux, molibden, temir rudalari Marjonbuloq, Qo'yto'sh, Uchquloch konlarida topilgan. Qurilish materiallari xom ashyosi bo'lgan marmar, vollostonit, bazalt, granit, ohaktosh konlari topilib ishga tushirilgan. Viloyatda mineral xom ashyo resurslaridan yoqilg'i foydali qazilmalari biror joyda hali aniqlanmagan.

Iqlim resurslaridan foydalanishni viloyat geografik joylashgan o'rniga ko'ra hududida quyosh radiatsiyasining yozgi turish holati  $74^\circ$  qiya burchak ostida, qishda esa  $30^\circ$  burchak ostida turishida namoyon bo'ladi. Bulutsiz ochiq kunlar 142 kundan 174 kungacha davom etishi va 2711 soatgacha quyosh nur sochib turishi quyosh nurlaridan issiqlik energiyasi olib turishini ta'minlaydi. Bu esa viloyat hududida o'simliklar vegetatsiya davrining 240-260 kungacha davom etib. Issiqsevar o'simliklardan paxta, poliz ekinlari, sholi, kungaboqar, makkajo'xori, kunjut singari qishloq xo'jaligi ekinlarini etishtirish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Quyosh nurining yalpi radiatsiyasi  $140-145 \text{ kkal/sm}^2$  ni tashkil etishi hamda bulutsiz kunlarning ko'p bo'lishi mahalliy sharoitda noan'anaviy energiya turlaridan biri bo'lgan quyosh doimiyligi – geliorekurslardan parnik va issiqxonalarini isitishda, quyosh energiyasi asosida ishlaydigan maxsus qurilma yordamida kommunal xo'jalik uchun suvlarni isitishda foydalanish mumkin. Doimiy esadigan shamol yo'nalishida shamol kuchi bilan ishlaydigan energiya manbalaridan foydalanish mumkin.

Viloyat hududida sug'oriladigan yerlarning kattaligi va iqlim sharoiti suv resurslariga bo'lgan talabni yanada oshiradi. Hududining katta qismi (73%) tekislikdan iborat bo'lib, yillik haroratlar yig'indisi 4000-6000 gradusni tashkil etishi, vegetatsiya davrining uzoq davom etishi o'rta pishar paxta navini yetishtirish, poliz ekinlaridan ikki marta hosil olish va bog'dorchilikni rivojlantirish uchun suv resurslaridan yanada samarali foydalanishni talab etadi.

Jizzax viloyati sug'oriladigan yerlari Sirdaryodan suv oluvchi Janubiy Mirzacho'l, DM-1, DM-2, Zarafshon daryosidan suv oluvchi Eski Tuyatortar kanali, Sangzor daryosi va boshqa bir qancha soylardan oquvchi suvlar hisobiga sug'oriladi. Shuningdek, Chumqortog', Molguzar va Nurota tizmalaridan oqib tushuvchi ko'plab soylar suvidan mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan sug'orishda foydalaniladi. Suv resurslaridan foydalanishni yaxshilash maqsadida Zomin, Jizzax va Qorovultepa suv omborlari qurilgan bo'lib, sug'orishda foydalaniladi. Bundan tashqari amalda foydalanilmayotgan suv resurslariga 42 mln.  $\text{m}^3$  hajmdagi Aydar-Arnasoy ko'llari tizimidagi tashlama suvlarini ham kiritishimiz mumkin.

Viloyat yer resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi ham yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, umumiy yer fondini foydalanishga ko'ra turlarga ajratish mumkin. Umumiy yer maydoni 21,21 ming  $\text{km}^2$  ni tashkil qilib, ekin yerlar 480 ming ga, sug'oriladigan yerlar 258,2 ming ga, lalmi yerlar 221,7 ming ga, ko'p yillik daraxtzorlar 17,2 ming ga, bo'z yerlar 6,4 ming ga, pichan va yaylovlar

739,8 ming ga, tomorqa, bog'dorchilik va sabzavotchilik yerlari 32,4 ming, meliorativ qurilish holatidagi yerlar 7,1 ming ga, o'rolmazorlar 173,2 ming ga va boshqa yerlar 665 ming ga ni tashkil etadi. Hozirgi kunda sug'oriladigan yerlarning yanada oshib bormoqda. Chunki istemoldagi oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi sug'oriladigan yerlardan olinganligi tufayli undan foydalanishning eng samarali usullaridan qo'llashni taqozo etadi.

Biologik (o'simlik va hayvonot dunyosi, o'rmonlar) resurslar ham viloyatning yer yuzasidagi relyef tuzilishi va tuproq-iqlim sharoiti, suv resurslariga bevosita bog'liq holda turlicha tarqalgan. Chumqortog', Molguzar va Nurota tizmalarida iqlim birmuncha qulay va sernam bo'lgan shimoliy yonbag'irlarida o'simlik dunyosi yaxshi rivojlangan. Tog'li hududlarda Turkiston tizmasida tog'-archazor, Nurota tizmasida tog' yong'oqzorlari o'rmonlari bilan qoplangan bo'lib, bu o'simlik va hayvonot dunyoning bioxilma-xilligi saqlanib kelinmoqda. O'simliklar qoplamida dorivor va shifobaxsh o'simliklarning noyob turlarining ko'pligi ham xalq tabobatida qadimdan ma'lum. Hozirgi kunda viloyat o'rmon xo'jaligi boshqarmasi tomonidan shahar va shahar atrofi yo'l chetlariga manzarali daraxt ko'chatlari ekilib, o'rmonlar barpo qilinib, ixotalashtirilmoqda.

Qishloq xo'jaligida yer ishlab chiqarishning asosiy vositasi hisoblanadi. Mamlakat yer va yer boylıklaridan oqilona foydalanish davlatimiz agrar siyosatining asosi bo'lib, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini intensivlashtirishning eng muhim shartidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdug'aniyev A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. T, TDIU, 2004.
2. Ahmadaliyev Y.I. Yer resurslardan qishloq xo'jaligida foydalanishning hududiy tashkil etilishini takomillashtirish. (Farg'ona vohasi iqtisodi), Geografiya, fan doktori ilmiy darajasini olishi u-n diss. Avtoref. T., 2007.
3. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. – T., O'qituvchi, 2007.